


SAMARQAND VILOYATINING CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI


(2018 yil yanvar-dekabr)

2018 yilning yanvar-dekabr oylarida, viloyatning chakana savdo tovar aylanmasi 11 123,1 mlrd. so`mni tashkil etib, o`tgan yilning shu davriga nisbatan 104,9% ga o`sdi. Shu jumladan, yirik korxonalarning tovar aylanmasi 1060,0 mlrd. so`mni (o'sish sur`ati 140,8%), kichik tadbirkorlik sub'yeqtalarining tovar aylanmasi 10 063,1 mlrd. so`mni (o'sish sur`ati 102,2%), shundan uyushmagan savdo tovar aylanmasi 1 650,4 mlrd. so`m (o`tgan yilning shu davriga nisbatan 95,2%)ni tashkil etdi.

Hududlar kesimida chakana savdo tovar aylanmasi hajmi (mlrd. so`m)





2017 yilning shu davriga nisbatan viloyatning barcha hududlarida chakana savdo tovar aylanmasining o'sish sur`atlari kuzatilib, nisbatan yuqori o'sish sur`atlari Samarqand va Kattaqo'rg'on shaharlari, Jomboy, Oqdaryo va Payariq tumanlarida qayd etildi.

Chakana savdo tovar aylanmasining o'sish sur'atlari, (%)


Chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarning tovar aylanmasi hajmi o'tgan yilning mos davriga nisbatan 40,8% ga o'sdi va 1060,0 mlrd. so'mni tashkil qildi. Bu esa umumiy savdo hajmining 9,5% ulushiga to'g'ri keldi.


Kichik tadbirkorlik sub'yektlarining chakana savdo tovar aylanmasi hajmi statistik hisob-kitoblarga ko'ra, 10063,1 mlrd. so'mni tashkil etib, 2017 yilning yanvar-dekabr oylariga nisbatan 102,2% ga o'sdi. Viloyat miqyosida ushbu sektorning jami chakana savdo tovar aylanmasidagi ulushi 90,5 % ga teng kelmoqda.

Chakana savdo tovar aylanmasi tarkibi, (%)

2017 yil yanvar-dekabr

2018 yil yanvar-dekabr


Yirik korxonalar
 Kichik tadbirkorlik

**Chakana savdo aylanmasida
yirik korxonalar va kichik tadbirkorlikning ulushi, (%)**




Tahliliy natijalarga ko'ra, chakana savdo tovar aylanmasida kichik tadbirkorlik sub'yektlarining ulushi bo'yicha Bulung'ur (99,9%), Nurobod (99,9%), Kattaqo'rg'on (99,8%), Tayloq (99,8%), Qo'shrabot (99,8%) va Narpay (99,8%) tumanlari yetakchilik qilmoqda.

Chakana tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarining ulushi 9,5% ni tashkil etib, eng katta ulush Samarqand shahrida (23,4%), Samarqand tumanida (45,1%) va Pastdarg'om tumanida (6,0%) kuzatildi.

**Kichik tadbirdorlik va yirik korxonalarining
chakana savdo tovar aylanmasidagi hajmi**


Hudud nomi	Yirik korxonalar (mlrd. so`m)	O`tgan yilning shu davriga nisbatan, %da	Kichik tadbirdorlik (mlrd. so`m)	O`tgan yilning shu davriga nisbatan, %da
Samarqand viloyati	1060,0	140,8	10063,1	102,2
Samarqand shahri	717,5	142,5	2351,4	103,1
<i>Kattaqo'rg'on shahri</i>	2,2	96,0	590,1	104,6
<i>tumanlar:</i>				
Bulung'ur	0,8	-	798,4	102,4
Jomboy	1,0	-	303,5	106,1
Ishtixon	1,8	-	462,6	103,7
Kattaqo'rg'on	0,9	-	441,0	103,9
Narpay	1,0	-	401,3	103,1
Nurobod	0,4	-	415,2	102,5
Oqdaryo	2,4	-	327,7	103,5
Payariq	2,0	-	413,3	104,2
Pastdarg'om	49,4	116,3	773,8	101,3
Paxtachi	1,3	37,1	438,3	102,6
Samarqand	262,5	135,5	319,8	86,8
Tayloq	0,6	-	344,6	104,0
Urgut	15,5	2,1 m.	1310,8	100,8
Qo'shrabot	0,7	-	371,3	101,2

Hududlarda kichik tadbirkorlik sub'yektlarining chakana savdo tovar aylanmasidagi ulushi, (%)



Kichik tadbirkorlik sub'yektlari chakana savdo tovar aylanmasi hajmi yuqori bo'lgan Samarqand shahri 2351,4 mlrd. so'm, Urgut tumani 1310,8 mlrd. so'm, Bulung'ur tumani 798,4 mlrd. so'm, Pastdarg'om tumani 773,8 mlrd. so'm, Kattaqo'rg'on shahri 590,1 mlrd. so'm, Ishtixon tumani 462,6 mlrd. so'm, Kattaqo'rg'on tumani 441,0 mlrd. so'm va Paxtachi 438,3 mlrd. so'mlik hajm bilan chakana savdo tovar aylanmasining o'sishiga ijobiy ta'sir ko'rsatdi.

Chakana savdo tovar aylanmasida tumanlarning ulushi, (%)



2018 yil yanvar-dekabr oylarida chakana savdo tovar aylanmasi viloyat bo'yicha aholi jon boshiga 2 958,7 ming. so'mni tashkil qilib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan 102,9% ga ko`paydi. Aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi 2018 yilning yanvar-dekabr oylarida o'tgan yilga nisbatan viloyatning ayrim hududlarida o'sish ko`rsatkichlarini tashkil etib, eng yuqori ko`rsatkichlar Kattaqo'rg'on shahri (6 769,2 ming. so'm), Samarqand shahri (5 748,0 ming. so'm) va Bulung'ur tumani (4 418,2 ming. so'm) hissasiga to`g`ri keldi.

Shuningdek, aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi bo'yicha eng kam ko`rsatkichlar Kattaqo'rg'on (1 671,7 ming. so'm), Payariq (1 720,7 ming. so'm), Tayloq (1 781,5 ming. so'm) va Jomboy tumanlarida (1 842,0 ming. so'm) qayd etilgan. Ushbu ko`rsatkich viloyat hududlari kesimida quyidagicha ko`rinish olgan:

Aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi

Hududlar nomi	Ming. so`m	O`tgan yilning shu davriga nisbatan, %da
Samarqand viloyati	2958,7	102,9
Samarqand shahri	5748,0	108,7
Kattaqo'rg'on shahri	6769,2	103,3
<i>tumanlar:</i>		
Bulung'ur	4418,2	100,4
Jomboy	1842,0	103,7
Ishtixon	1896,2	101,9
Kattaqo'rg'on	1671,7	102,1
Narpay	1945,0	101,6
Nurobod	2856,5	100,6
Oqdaryo	2142,3	102,3
Payariq	1720,7	102,6
Pastdarg'om	2403,7	100,0
Paxtachi	3142,2	100,3
Samarqand	2389,2	101,6
Urgut	2717,1	98,9
Tayloq	1781,5	102,0
Qo'shrabot	2934,1	99,3

2018 yilning yanvar-dekabr oylari mobaynida chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida ovqatlanish tashkilotlarining savdo aylanmasi 2,2% ni tashkil etib, 240,5 mlrd. so`mga yetdi, yoki o`tgan yilning mos davriga nisbatan 118,4% o`sishga erishildi. Bunda jami savdo aylanmasining 95,2% ulushi kichik tadbirkorlik sub'yektlari ulushiga to`g`ri kelmoqda.


SAMARQAND VILOYATINING ULGURJI SAVDO TOVAR AYLANMASI

(2018 yil yanvar-dekabr*)

Joriy yil boshidan viloyat bo`yicha ulgurji savdo tovar aylanmasi 4 380,6 mlrd. so`mni tashkil qildi va 2017 yilning shu davriga nisbatan 113,9 % ga o`sdi.

Ulgurji savdo tovar aylanmasida eng yuqori hajm kichik tadbirkorlik sub`yektlariga to`g`ri kelib, mazkur hajm 2018 yil yanvar-dekabr oylari yakunlariga ko`ra 3 190,9 mlrd. so`mni tashkil etib, o`tgan yilning shu davriga nisbatan 119,2% ni tashkil etdi. Ushbu sektorning umumiyligi ulgurji savdo aylanmasidagi ulushi esa 72,8% ni tashkil qilmoqda. Yirik korxonalar esa, 1 189,8 mlrd. so`mni tashkil etib, o`tgan yilning shu davriga nisbatan 101,6% ga o`sdi.

Ulgurji savdo tovar aylanmasida yirik va kichik korxonalarning ulushi, (%)



Tashqi iqtisodiy faoliyat va savdo
statistikasi bo`limi
Tel.:71-230-85-23
66-235-65-80